

O'QUVCHILARNING SINFDAN TASHQARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING VAZIFALARI VA TAMOYILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15399985>

Umurzakova Munisaxon Rashid qizi

Qori Niyoziy nomidagi

Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

2-kurs tayanch doktoranti

ЗАДАЧИ И ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕУЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ

TASKS AND PRINCIPLES OF ORGANIZING STUDENTS' EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinfdan tashqari faoliyat o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim pedagogik jarayon ekanligi ochib berilgan. Xususan, darsdan tashqari vaqtda o'quvchilarning qobiliyatlarini kashf etish, ijtimoiy faollikni rivojlantirish, ilmiy bilimlarini chuqurlashtirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga oid vazifalar yoritib berilgan. Shuningdek, o'qituvchi va tarbiyachilarning pedagogik jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

Ixtiyoriylik, Izchillik va tizimlilik, Individuallashtirish yondashuv, Ijodiy yondashuv, Ilmiy-ma'rifiy to'garaklar, texnik va ijodiy to'garaklar, Sport-sog'lomlashtirish faoliyati.

Аннотация

В статье показано, что внеклассная работа является важным педагогическим процессом, способствующим всестороннему развитию учащихся. В частности, выделены задачи, связанные с раскрытием способностей учащихся, развитием социальной активности, углублением их научных знаний, формированием навыков самостоятельного мышления в ходе внеклассной работы. Обоснованы преимущества использования современных информационных технологий в педагогическом процессе для учителей и воспитателей.

Ключевые слова

Добровольность, Последовательность и системность, Индивидуализированный подход, Творческий подход, Научно-образовательные кружки, Технические и творческие кружки, Спортивно-оздоровительная деятельность.

Abstract

This article reveals that extracurricular activities are an important pedagogical process that serves the comprehensive development of students. In particular, the tasks of discovering students' abilities, developing social activity, deepening their scientific knowledge and forming independent thinking skills during extracurricular activities are highlighted. The advantages of using modern information technologies in pedagogical processes by teachers and educators are also substantiated.

Keywords

Voluntariness, Consistency and systematicity, Individualized approach, Creative approach, Scientific and educational circles, technical and creative circles, Sports and health activities.

KIRISH. O'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini tashkil etish bu ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib, darsdan tashqari vaqtda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijtimoiy faollikni oshirish va ularning qiziqishlarini rag'batlantirishda katta ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari faoliyatning asosiy maqsadlari:

- O'quvchilarning individual qobiliyat va iste'dodlarini aniqlash va rivojlantirish
- Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish
- Ijtimoiy faollik va jamoa bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish
- Fan va texnika yutuqlari bilan tanishtirish
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish

Hayotiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiya jarayonlarini birgalikda olib borish doimo ijobiy natija bergan, shu sabab yosh avlodni tarbiyalashda sinfdan va maktabdan tashqari pedagogik jarayonlarni takomillashtirish mexanizmlari kundan kunga takomillashtirilib bormoqda.

METODOLOGIYA. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari – bolalar va o'smirlar bilan maktabdan tashqari ish olib boruvchi ijtimoiytashkiliy va instruktiv-

metolik muassasalar. Maktab bilan yaqindan bog'lanib ish yuritadi. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijoliyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi. Sinfdan tashqari faoliyatni tashkil etishning asosiy tamoyillari:

- **Ixtiyoriylik** – O'quvchilar qiziqishlariga ko'ra erkin tanlash imkoniyati
- **Izchillik va tizimlilik** – Faoliyatning rejalashtirilgan va muntazam olib borilishi
- **Individuallashtirish yondashuv** – Har bir o'quvchining qobiliyatini inobatga olish
- **Ijodiy yondashuv** – O'quvchilarning erkin fikrlashiga va ijod qilishiga rag'bat berish

Sinfdan tashqari faoliyatni tashkil qilishda pedagogning vazifalari:

- O'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va shunga mos faoliyat turlarini belgilash
- Turli to'garaklar va tanlovlarni tashkil etish va rahbarlik qilish
- O'quvchilarning erkin fikrlashi va ijodkorligini rag'batlantirish
- Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish

Bu jarayon o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish bilan birga ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Xususan, sinfdan tashqari to'garaklar orqali o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va iste'dodini kashf qilishga qaratilgan ta'lim shaklidir. To'garaklar o'quvchilarning ilmiy, madaniy, texnik, sport va boshqa sohalaridagi qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga ushbu to'garaklarning asosiy maqsadlariga quydagilar kiradi:

- O'quvchilarning qiziqishlari va iste'dodlarini aniqlash va rivojlantirish
- Mustaqil izlanish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish
- Ijtimoiy faollik va jamoa bilan ishlash qobiliyatini oshirish
- Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish
- Zamonaviy kasblarga yo'naltirish

Sinfdan tashqari to'garaklarning asosiy turlari:

1. Ilmiy-ma'rifiy to'garaklar. Bu to'garaklar o'quvchilarning bilim darajasini chuqurlashtirish va ilmiy qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan:

- Matematika va mantiqiy fikrlash to'garagi
- Kimyo va biologiya laboratoriyasi
- Ingliz tili va boshqa chet tillari to'garagi
- Tarix va huquq bilimdonlari klubi
- Robototexnika va dasturlash to'garagi

Foydasi: Analitik fikrlashni rivojlantiradi, olimpiadalarga tayyorlaydi, tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

2. Texnik va ijodiy to'garaklar

Bu to'garaklar texnik ko'nikmalarni rivojlantirish va amaliy hunar o'rgatishga qaratilgan:

- Model qilish va konstruktorlik to'garagi
- Qo'l mehnati va dizayn
- Dasturlash va kompyuter texnologiyalari
- Avtomatika va mexatronika

Foydasi: Amaliy va texnik bilimlar beradi, ixtirochilik qobiliyatini rivojlantiradi, kasbga yo'naltira

3. Ijtimoiy va axloqiy yo'nalishdagi to'garaklar. Bu to'garaklar ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va ma'naviy rivojlanishga qaratilgan:

- Yosh yetakchilar klubi
- Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish to'garagi
- Ko'ngillilar klubi (Volunteer)
- O'quvchilar parlamenti va debat klubi

Jamiyatga foydali bo'lish hissini uyg'otadi, muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishni rivojlantiradi. Sinfdan tashqari to'garaklarni tashkil qilishning muhim jihatlari:

- O'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish
- Yil davomida rejalashtirilgan faoliyatni izchil olib borish
- Ota-onalar bilan hamkorlik qilish
- Qobiliyatlarni aniqlash uchun maxsus test va kuzatuvlar o'tkazish
- Samaradorlikni baholash va rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish

Sinfdan tashqari to'garaklar o'quvchilarning intellektual, jismoniy va ijodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Ular ta'lim jarayonini boyitib, o'quvchilarni mustaqil izlanishga, o'z ustida ishlashga va jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi. Xo'sh, maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim aslida nima va u jamiyat hayotida qanday ijtimoiy ish bajaradi? Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi. Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Ushbu tadbirlar

o'quvchilarning yaxlit rivojlanishiga ko'maklashish, shaxsiy va akademik o'sish uchun imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ular talabalarga aniq qiziqishlarni amalga oshirish yoki qo'shimcha ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi va sport-sog'lomlashtirish, musiqa va san'at kabi faoliyat turlarini o'z ichiga olishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR. Maktabdan tashqari ta'lim o'quvchilarda o'zini qurshagan muhit bilan erkin muloqot qilish, ijtimoiy hayotda o'z mavqeini mustahkamlash, muammoni hal qilishda kreativlik, yetakchilik, vaqtni boshqarish, tashkilotchilik, va nutqiy ko'nikmalarni oshirishda asosiy vosita hisoblanadi. Maktabdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlar juda foydali bo'lib ular o'quvchi va talabalarning ta'lim tajribalarini va ijtimoiy, hissiy va muloqot qobiliyatlarini oshirishda yordam beradi. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda faol bo'lish o'quvchilar orasida dars vaqtida olgan bilimlarini tajribada sinab ko'rish, aqliy salohiyatni orttirish va o'rganganlarini qo'llash imkonini beradi. Sinfdan tashqari faoliyat turlari:

1. **Ilmiy-ma'rifiy faoliyat**
 - o Fan to'garaklari (matematika, fizika, kimyo va boshqalar)
 - o Eksperiment va tadqiqot ishlari
 - o Tanlovlar, olimpiadalar, viktorinalar
2. **Madaniy-ma'rifiy faoliyat**
 - o Adabiy-badiiy kechalar
 - o Teatr va musiqa to'garaklari
 - o Kitobxonlik tanlovlari
3. **Sport-sog'lomlashtirish faoliyati**
 - o Sport musobaqalari (futbol, shaxmat, yugurish va boshqalar)
 - o Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish tadbirlari
 - o Turistik va sayohat klublari
4. **Ijtimoiy foydali mehnat faoliyati**
 - o Eko-aksiyalar va hasharlarda qatnashish
 - o Qariyalarga ko'maklashish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish
5. **Ijodiy faoliyat**
 - o Rasmlar ko'rgazmalari
 - o Qo'l mehnati va hunarmandchilik ko'rgazmalari
 - o Insho, hikoya va she'rlar tanlovi

Ta'limdan tashqari pedagogik jarayonlar haqida zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan dastlabki Sharq falsafiy qarashlarmi o'zida aks ettiruvchi manba «Avesto» da ham bayon qilingan (Khaydarov, S. A. 2021. – P.41-43). Unda ta'lim va tarbiya jarayonlari va fikr, so'z va ishning birligi ibtidoiy

insonning ham ajralmas xislati edi. Uning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasavvurlari o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy bog'langan, Jamoaning fikri uning ham fikri, jamoaning so'zlari uning ham so'zlari, jamoaning ishlari uning ham ishlari bo'lgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning uyg'unligi-urug'chilik jamiyatining muhim belgisidir. Jamoaning har qanday topshirig'ini bajarish uning a'zolari uchun muqaddas qonun edi. Uning so'zi, fikri hamda ishi ezgu bo'lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan. Ushbu yutuqlar maktab ta'limi qadimgi rimliklar va yunonistonliklarning umumiy madaniy va ijtimoiy rivojlanishi doirasida yoki umuman qadimiy sivilizatsiya ular o'quv kurslarining mazmuniga hissa qo'shgan omillarni aniqladilar, maktab bosqichiga (boshlang'ich, o'rta, yuqori) qarab o'quv jarayonining xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Yunon va Rim mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, fransuz tarixchisi P. Giro "Rimliklarning shaxsiy va ijtimoiy hayoti" (Частная и общественная жизнь греков. — СПб, Алетея, 1995. — С.45) va ukrainalik O. Gordievich "Imperatorlar davrida Rimda Oliy ma'lumot" asarlari diqqatga sazovordir, ular turli xil, shu jumladan majoziy manbalar asosida Rim maktabining ba'zi jihatlarini qamrab oladi (O.Gordievich, 1894. — P.41).

Maktablar asosan bilim, tarbiya berish bilan shug'ullansa, Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga ko'mak beradi. "Barkamol avlod" bolalar maktabi tomonidan maxallada istiqomad qilayotgan fuqarolarni maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi konsepsiya, qo'shimcha ta'lim maqsad va vazifalari, o'quv mashg'ulotlarining mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor etish, bolalar ota-onalari o'rtasida pedagogik ma'rifatni tashkil etish, ularni metodik bilimlar bilan qurollantirish o'zaro hamkorlikning asosiy mohiyatini tashkil etadi (R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. 2002. — B.89). Maktabdan tashqari ta'lim tizimida quyida keltirilgan vazifalar maxalla fuqarolar yig'inlari bilan o'zaro hamkorlikka amalga oshirilsa, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda har bir tashkilot baholi qudrat o'z hissasini qo'shgan bo'ladi. Sinf dan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi.

O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi. Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab

etmoqda. Sinfdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi (J.Yo'ldoshev. 2000. – B.155). Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin: a) fan to'garaklari; b) mohir qo'llar to'garaklari; v) duradgorlik to'garaklari; g) sport to'garagi; d) badiiy havaskorlik to'garagi. O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi. Sinfdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularni dunyo qarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish; o'quvchilarning sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish; sinfdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish; umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish; o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish; Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy. Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

XULOSA. Sinfdan tashqari faoliyat o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim pedagogik jarayondir. Bu faoliyat darsdan tashqari vaqtda o'quvchilarning qobiliyatlarini kashf etish, ijtimoiy faollikni rivojlantirish, ilmiy bilimlarini chuqurlashtirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu faoliyat o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda tashkil etilganda, ular nafaqat o'quv fanlarida muvaffaqiyat qozonadi, balki hayotiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok eta oladigan, yetuk shaxslar bo'lib shakllanadi. Sinfdan tashqari faoliyatning asosiy natijalari:

- O'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.
- Jamoada ishlash, muloqot qilish va liderlik ko'nikmalari shakllanadi.
- Bo'sh vaqtni mazmunli va foydali o'tkazish imkoniyati yaratiladi.
- Ijtimoiy mas'uliyat, vatanparvarlik va insoniy fazilatlar rivojlanadi.
- Kasbga yo'naltirish va kelajakdagi faoliyatga tayyorgarlik ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Xullas, sinfdan tashqari faoliyat ta'limning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonni samarali tashkil qilish orqali o'quvchilar hayotga tayyorlanadi va ularning shaxsiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 30-sentabrdagi PQ-4467-sonli qarori.
2. Akramova F.A. Zamonaviy ta'lim // Barkamol avlod tarbiyasida pedagog kadrlar mustaqil ta'limining o'ziga xos ta'siri. – Toshkent, 2014. – B.23
3. Khaydarov S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
4. R. Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. – T.: "O'qituvchi", 2002.
5. J.Yo'ldoshev. Ta'lim yangilanish yo'lida. – Toshkent, 2000.
6. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2004.